ISSN 2010-6734
Gazeta 1904-yil 10-apreldan chiqa boshlagan

Vatan, el manfaati muqaddasdir!

Samarqand

2026-yil 24-oktabr, SHANBA, 42 (2659)-son

t.me/samarkandnews_uz

www.samarkandnews.uz

JAHON SAMMITIDA

SAMARQAND DEKLARATSIYASI QABUL QILINDI



Samarqandda o‘tkazilayotgan “Bolalar farovonligiga investitsiya: kelajak avlodlarning barqaror va adolatli taraqqiyoti sari yo‘l” butunjahon sammiti hamda bolalar onkologiyasi bo‘yicha II xalqaro kongressining yakuniy plenar sessiyasida “Bolalar farovonligiga investitsiya to‘g‘risidagi Samarqand deklaratsiyasi” muhokama qilindi.

YUNISEFning O‘zbekistondagi vakili Regina Mariya Kastilo ikki kun davomida Samarqandda BMT, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Jahon banki va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar, 100 dan ortiq davlatdan kelgan vazirlar, bolalar salomatligi va huquqlari bo‘yicha mutaxassislar, ekspertlar dunyo bolalarining buguni va kelajagi, farovonligi uchun dolzarb masalalarni muhokama qilganini ta’kidladi.

– Mazkur sammit orqali O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar va dunyo mamlakatlari hukumatlari bilan bolalar kelajagi yo‘lida hamkorlik qilish, tajriba almashish uchun muhim platforma yaratdi. Shuningdek, bolalarga teng huquqli muhit va sharoit yaratish, ularning kelajagiga samarali investitsiyalar kiritish har qachongidan ham zarurligini ko‘rsata oldi, – dedi Regina Mariya Kastilo.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori Mansurbek Olloyorov sammit natijalarini sarhisob qilib, muhokama qilingan masalalar yuzasidan asosiy xulosalar bildirdi.

– Sammitning tantanali ochilish marosimi, yuqori darajali mehmonlar ishtirokidagi va boshqa panel sessiyalarda bolalarning sog‘lom o‘sishi, ta’lim olishi va huquqlari bilan bog‘liq muhim masalalar muhokama qilindi, – dedi M.Olloyorov. – Dunyo davlatlarining bu boradagi tajribalari ko‘rib chiqildi, kelgusi vazifalarga e’tibor qaratildi. YUNISEF, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Jahon banki va boshqa tashkilotlar bilan bir qator hujjatlar imzolandi, grantlarni amalga oshirishga kelishildi. Bu yerda bildirilgan tashabbuslar, g‘oyalar, tuzilgan yo‘l xaritalari, memorandumlar bolalarning farovonligi, xavfsiz muhitda o‘sishi, ta’lim olishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga xizmat qiladi. Biz xorijlik do‘stlarimiz, hamkorlarimiz bilan ko‘p loyihalar haqida gaplashdik, o‘zaro tajriba almashdik. Jumladan, keyingi yillarda O‘zbekistonda bolalar haq-huquqlarining to‘la kafolatlanishi borasidagi ishlar, ularning maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha qamrov ko‘rsatkichi oshganligi e’tirof etildi. Biz bu borada o‘z tajribalarimizni bo‘lishishga, boshqa davlatlarga yordam berishga, hamkorlik qilishga tayyormiz.

(Davomi 2-sahifada) ▶▶

JADIDLAR HAQIDA KIM KO‘P BILADI?

Samarqand shahridagi 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabida “Jadidlar izidan” ko‘rik-tanlovining shahar bosqichi bo‘lib o‘tdi. Unda shahardagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6–10-sinf o‘quvchilari ishtirok etdi.



Ta’lim va ilm-fan vazirligi hamda respublika “Kelajak” markazi tomonidan tashkil etilgan ushbu tanlovdan ko‘zlangan maqsad yosh avlodning jadid bobolarimiz hayoti va ma’rifiy merosiga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning ilm-fan, ta’lim va milliy taraqqiyot yo‘lidagi faoliyatini chuqur o‘rganishga undash, shuningdek, o‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, mustaqil fikrlash va intellektual salohiyatni rivojlantirishdan iborat.

Tanlov ikki bosqich, test sinovlari va suhbat shaklida tashkil etildi. Kompyuter orqali o‘tkazilgan test jarayonida ishtirokchilarning jadidlar hayoti, faoliyati va ma’rifatparvarlik merosiga oid bilimlari sinovdan o‘tkazildi. Suhbat bosqichida esa o‘quvchilarning bilimlari bilan bir qatorda, mustaqil fikrlash va mushohada yuritish qobiliyatiga ham e’tibor qaratildi.

– “Jadidlar izidan” ko‘rik-tanlovida ishtirok etish men uchun katta tajriba bo‘ldi, - deydi tanlov ishtirokchisi Dilnura Nodirova. - Ushbu bilimlar baxsiga tayyorgarlik jarayonida jadid bobolarimizning hayoti va ma’rifat yo‘lidagi faoliyati haqida ko‘plab yangi ma’lumotlarni o‘rgandim. Test va suhbat bosqichlari bilimlarimni sinash, mustaqil fikrlash va o‘z ustimda yanada ko‘proq ishlashga undadi. Menimcha, bunday tanlovlar biz kabi yoshlarni kitob mutolaasiga, ilm olishga va ajdodlar merosini chuqur o‘rganishga rag‘batlantiradi.

Bellashuv yakunida har bir sinf toifasi bo‘yicha ishtirokchilarning barcha shartlarda to‘plagan ballari umumlashtirilib, eng yuqori natija qayd etgan o‘quvchilar orasidan g‘oliblar aniqlandi.

Otabek UMIROV

Ba’zi muammolar dastlab ko‘zga unchalik tashlanmaydi. Avvaliga ularni arzimasdek ko‘ramiz, e’tibor bermaymiz. Keyin esa asta–sekin ko‘nikib boramiz. Vaqt o‘tishi bilan bunday holatlar odatga aylanadi. Eng achinarlisi, bir paytlar xato deb hisoblangan narsa keyinchalik oddiy hol sifatida qabul qilina boshlaydi.

Bugun o‘zbek tilida yozish, gapirish madaniyatida ham shunga o‘xshash holat kuzatilmoqda. Ko‘pchilik so‘zlarni qanday yozayotganiga, fikrini qay darajada savodli ifoda etayotganiga yetarlicha e’tibor bermayapti. Go‘yo so‘zni qanday yozishning ahamiyati yo‘qdek. Muhimi, aytmoqchi bo‘lgan fikringni boshqalar tushunsa, bas.

Aslida, masala bundan ancha jiddiy. Chunki to‘g‘ri yozish faqat imlo qoidalarini bilish yoki o‘z savodxonligini namoyon etishdan iborat emas. U insonning o‘z tiliga, madaniyatiga va jamiyat oldidagi mas’uliyatiga bo‘lgan munosabatini ham ifoda etadi. Yozma nutq orqali biz nafaqat fikrimizni boshqalarga yetkazamiz, balki tilning bugungi holati va kelajagiga ham muayyan darajada ta’sir ko‘rsatamiz.

BIZ XATO YOZISHDAN UYALMAY QO‘YDIK

Yaqinda bir tashkilotning rasmiy xatini o‘qib qoldim. Dastlab uni hali tahrirdan o‘tmagan qoralama hujjat bo‘lsa kerak, deb o‘yladim. Ammo xatda rahbarning imzosi va tashkilot muhri bor. Bir o‘ylab ko‘ring agar rasmiy hujjat tayyorlash jarayonida ham imlo qoidalariga jiddiy e’tibor berilmasa, boshqa holatlardan nimani kutish mumkin? Axir rasmiy xat, qaror, ma’lumotnoma yoki murojaat tashkilotning yuzi, uning ish madaniyati va mas’uliyatini ko‘rsatuvchi muhim vosita emasmi?

“Shu bir idora hujjatida xato ketibdi, shunga shuncha vahima qilish shartmi?” deb o‘ylashingiz mumkin. Albatta, har qanday inson xato qilishi mumkin. Biroq gap bitta xatodagina emas. Bugun so‘zlarni noto‘g‘ri yozish, imlo qoidalariga beparvo munosabatda bo‘lish holatlari tobora ko‘proq ko‘zga tashlanayotgani tashvishlidir.

To‘g‘ri yozishni bilmagan insonning xatosini qaysidir ma’noda tushunish (kechirish emas) mumkin. Ammo to‘g‘ri yozish imkoniyati bo‘la turib, yozayotgani xato ekanini bila turib, uni takrorlashni odatga aylantirishni qanday izohlash mumkin?

Fikrimiz isboti sifatida ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarni kuzatsangiz, muammoning yana bir jihatiga duch kelasiz. Ayrimlar to‘g‘ri yozish imkoniga ega bo‘lsa-da, ongli ravishda harflarni almashtirib yozishga odatlangan. Masalan, kirill yozuvida “o” harfining o‘rniga “u”, “q” harfining o‘rniga “k”, “g‘” harfining o‘rniga “g”, “h” harfining o‘rniga “x” harflarini ishlatish holatlari uchraydi. Lotin yozuvida esa “sh” tovushining o‘rniga “w”, “o” harfining o‘rniga “o” yoki “u”, “g‘” harfining o‘rniga “g” yozish kabi holatlar kuzatiladi.

Albatta, bunday yozishga turli sabablar bo‘lishi mumkin. Ammo xatoni bila turib takrorlash va uni oddiy hol sifatida qabul qilish yozish madaniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Ayniqsa, yoshi katta kishilar, rahbarlar, o‘qituvchilar va jamiyatda boshqalarga o‘rnak bo‘ladigan insonlarning yozma nutqida bunday holatlarning uchrashi savodxonlikning kelajagi uchun tashvishlanarli. Chunki odamlar faqat aytilgan gaplarga emas, balki ko‘rsatilgan namunaga ham ergashadi.

Ona tiliga munosabat faqat imlo bilan cheklanmaydi. Yana bir masala borki, u haqda ham ochiq gapirishimiz kerak. Ba’zan kundalik muloqotimizda o‘zbek tilida aniq va tushunarli ifodalash mumkin bo‘lgan fikrlarni boshqa tildagi so‘zlar bilan almashtiramiz. Go‘yo boshqa tilda gapirish yoki yozish fikrni nufuzliroq, suhbatdoshni esa bilimliroq qilib ko‘rsatadigandek.

Albatta, tillar o‘rtasidagi aloqalar tabiiy jarayon. Boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish til taraqqiyotining ajralmas qismi. Shu bois har qanday o‘zlashma so‘zni qoralash yoki boshqa tildagi so‘zni ishlatishni ona tiliga hurmatsizlik deb baholashdan yiroqmiz. Biroq o‘zbek tilida aniq va tushunarli muqobili mavjud bo‘lgan so‘zni zaruratsiz ravishda boshqa tildagi so‘z bilan almashtirish til imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanmayotganimizni ko‘rsatadi. Bu esa ona tilimizga bo‘lgan xurmatsizligimiz belgisi nazarimda.

Xo‘sh, bu muammolarni qanday hal qilish mumkin? Avvalo, savodxonlikka bo‘lgan munosabatimizni o‘zgartirishimiz zarur. To‘g‘ri yozishni faqat maktabdagi diktant yoki imtihon uchun kerak bo‘ladigan ko‘nikma deb tushunmasligimiz lozim. Savodxonlik bu kundalik hayotda ham zarur bo‘lgan madaniyat, mas’uliyat va o‘z tiliga hurmat ifoda belgisi.

Nazarimda, savodli bo‘lish degani hech qachon xato qilmaslik emas. Savodlilik xatoni payqash, uni tuzatish va keyingi safar to‘g‘ri yozishga intilish. Muhimi, xatoni oddiy hol deb qabul qilmaslik, unga beparvo qaramaslik.

Ona tiliga hurmat ko‘rsatish uchun balandparvoz gaplar shart emas. So‘zlarni to‘g‘ri yozish, ularni to‘g‘ri talaffuz qilish, fikrni ravon va tushunarli ifodalashning o‘zi ham tilga bo‘lgan hurmatning amaliy ko‘rinishi. Tilimizning mavqeini yuksaltirish, uning qadrini asrash, avvalo, har birimizning kundalik muomalamiz va yozma nutqimizdan boshlanadi.

O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, agar o‘z tilimizni to‘g‘ri yozishga ham e’tibor bermasak, uning qadri haqidagi gaplarimiz qanchalik samimiy bo‘ladi? Bu savolga har birimiz so‘z bilan emas, avvalo, amalimiz bilan javob berishimiz, boshqalarga shaxsiy namunamiz orqali o‘rnak ko‘rsatishimiz kerak.

Muxtasar aytganda, tilni asrash, uni rivojlantirish va sofligini saqlash faqat tilshunoslar yoki mas’ul tashkilotlar zimmasidagi vazifa emas. Bu butun millatning ma’naviy burchi va umumiy mas’uliyati.

Ulug‘ yozuvchimiz Abdulla Qahhor o‘z davrida ona tiliga nisbatan hurmatsizlik va beparvolik bilan til me’yorlarining buzilishiga yo‘l qo‘yayotganlarni ko‘rib, shunday degan edi: “Nima uchun ko‘cha harakati qoidasini buzgan kishiga millisiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi?”

Bu savol bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shunday ekan, har birimiz ona tilimizning qadriga soya solayotgan holatga duch kelsak, unga befarq qaramasdan to‘xtatish, to‘g‘rilash, ogohlantirish o‘laroq “xushtak chalib” qo‘yaylik.

Olim SONNIBOYEV

JAHON SAMMITIDA SAMARQAND DEKLARATSIYASI QABUL QILINDI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)



Muhokama davomida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining bolalarga nisbatan zo‘ravonlik masalalari bo‘yicha maxsus vakili Najat Maalla Mjid xonim, Jahon bankining Markaziy Osiyo bo‘yicha direktori Naji Benxassin, YUNISEFning Yevropa va Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika bo‘yicha mintaqaviy direktori Ednar Begbeder, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining O‘zbekistondagi vakili va JSST mamlakat ofisi rahbari Ashina Xalakdina so‘zga chiqib, sammit va bolalar onkologiyasi bo‘yicha xalqaro kongress yuqori darajada o‘tganini qayd etib, bolalar farovonligi bo‘yicha o‘zaro tajriba almashish va kelgusi vazifalarni belgilashga imkoniyat yaratgani uchun O‘zbekiston rahbariyatiga minnatdorlik bildirdi. Bu yerda ko‘rib chiqilgan masalalar bo‘yicha bildirilgan takliflar, xulosalar “Bolalar farovonligiga investitsiya to‘g‘risidagi Samarqand deklaratsiyasi”da o‘z aksini topganini ta’kidladi.

– Biz Samarqand deklaratsiyasini olimlar, ulug‘ allomalar yurtida qabul qilmoqdamiz, buni unutmasligimiz kerak, – dedi Jahon bankining Markaziy Osiyo bo‘yicha direktori Naji Benxassin. – Men sammit tadbirlari davomida Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuasini ziyorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lganimdan juda xursandman. Islom olamining bu ulug‘ muhaddisi bolaligi haqida menga gapirib berishganida bir jihat e’tiborimni tortdi. Ya’ni, Imom Buxoriyning bolaligi nihoyatda og‘ir kechgan, hatto, ko‘zi ojiz bo‘lib qolgan ekan. U Qur’onni yod olayotganda ustozi unda noyob iste’dod borligini aytib, ruhlantirgan, uni qo‘llab-quvvatlagan ekan. Va u dunyo tan olgan muhaddisga aylandi. Demak biz har bir bolani e’tibordan chetda qoldirmasligimiz, undagi iqtidorni yuzaga chiqara olishimiz va qo‘llab-quvvatlashimiz kerak. Bu borada birgalikda harakat qilishimiz, kuchlarimizni birlashtirishimiz zarur. Ushbu sammitdan ko‘zlangan maqsad ham shu. Biz bunday tadbirlarni o‘tkazishda barcha davlatlarga yordam berishga tayyormiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari Shahnoza Mirziyoyeva sammitning Samarqand deklaratsiyasi va uning asosiy yo‘nalishlari, g‘oyalari bilan tanishtirdi.

– Biz ikki kun davomida muhim masalalarni muhokama qildik, fikr va tajriba almashdik, yangi hamkorlik yo‘llarini belgilab oldik, – dedi Shahnoza Mirziyoyeva. – Eng muhimi, barchamiz ezgu maqsad – har bir bola uchun yaxshi kelajak yaratish yo‘lida birlashdik. Bu yo‘lda yana bir muhim qadam qo‘ydik – “Bolalar farovonligiga investitsiya to‘g‘risidagi Samarqand deklaratsiyasi”ni qabul qildik. Biz ishonamiz, har bir bola baxtli, sog‘lom, xavfsiz muhitda ulg‘ayishi, bilim olishi, orzu qilishi va o‘z orzulariga yetishi kerak. Chunki bolalarga sarmoya kiritish kelajakka sarmoya kiritishdir. Bolalar mehr va e’tiborni ertaga emas, bugun his qilishi shart. Biz birgalikda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini kuchaytiramiz, ularni zo‘ravonlikdan himoya qilamiz, har bir bolaning yaxshi ta’lim olishi uchun imkoniyat yaratamiz. Tibbiy xizmatdan barcha bolalar foydalanishi uchun sharoit yaratamiz, bolalar saratoniga qarshi birgalikda kurashamiz. Farzandlarimizni kelajakka har tomonlama tayyorlaymiz. Bu ezgu maqsadlarga erishish uchun barcha imkoniyatlarimizni birlashtiramiz. Bolalar bizdan va’da emas, natija kutadi. Sammit yakunlanmoqda, lekin bizning ezgu ishlarimiz davom etadi. Keling, har bir bola uchun munosib kelajak yarataylik.

Deklaratsiya ishtirokchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va unda belgilangan qoidalar, majburiyatlar va vazifalarni amalga oshirishda hamjihatlikda harakat qilish, kuchlarni birlashtirishga kelishib olindi.

G’. HASANOV

MA’RIFATLI AYOL — KELAJAK TAYANCHI



Bu an’ana Dilshodi Barno va Anbar Otin faoliyatida ham davom etdi. Dilshodi Barno maktabdorlik qilib, qizlarga savod o‘rgatgan, adabiy ijod bilan shug‘ullangan. Uning maktabida ta’lim olgan Anbar Otin ham keyinchalik qizlarga saboq bergan. Uning asarlarida ayolning jamiyatdagi o‘rni, tenglik va ma’rifat masalalari muhim o‘rin tutadi.

Bu tarixiy misollarni birlashtiradigan jihat shuki, ayolning bilimi uning shaxsiy muvaffaqiyati bilangina cheklanmaydi. U keyingi avlodning dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bugun ham bu masala o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Bolaning dastlabki tushunchalari shakllanishida onaning o‘rni katta. Albatta, farzand tarbiyasi ota-ona va butun jamiyatning umumiy mas’uliyati. Biroq bilimli ayolning bu borada imkoniyatlari keng ekanligi, uning farzandlariga ta’lim-tarbiya berish jarayonida isbotini topmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning oliy ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator mexanizmlar joriy etildi. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlarida qayd etilishicha, 2020–2024-yillarda ehtiyojmand oilalarga mansub 8 ming 653 nafar xotin-qiz oliy ta’lim muassasalariga qo‘shimcha davlat granti asosida qabul qilingan. 2022–2024-yillarda davlat oliy ta’lim muassasalari magistraturasida tahsil olayotgan 15 mingdan ortiq xotin-qizning kontrakt to‘lovi qoplab berilgan. Shuningdek, kunduzgi ta’limda o‘qiyotgan xotin-qizlar uchun yetti yil muddatga foizsiz ta’lim krediti ajratish mexanizmi joriy etilgan.

Rasmiy ma’lumotlarda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida xotin-qizlar ulushi 52,2 foizga yetgani ham qayd etilgan. Bu ko‘rsatkich ta’lim olish imkoniyatlari kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq masalaning yana bir muhim tomoni bor: ta’lim olish imkoniyatining o‘zi yetarli emas, egallangan bilimni hayotda qo‘llash uchun ham sharoit zarur.

Oliy ma’lumotli ayol o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlayaptimi? Kasbiy jihatdan rivojlana olyaptimi? Ilmiy izlanishlarni davom ettirish, rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritish yoki tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun yetarli imkoniyatga egami? Bu savollar xotin-qizlar ta’limining haqiqiy samaradorligini baholashda muhim.

Chunki oliy ta’lim diplomi — yakuniy manzil emas, balki yangi imkoniyatlarga yo‘l ochadigan bosqich. Qizlarning universitetga kirishi qanchalik muhim bo‘lsa, ularning o‘qishni muvaffaqiyatli tamomlashi, kasbini egallashi va bilimini amaliyotda qo‘llashi ham shunchalik ahamiyatli. Ayniqsa, oilaviy sharoiti murakkab bo‘lgan yoki moddiy qiyinchiliklarga duch kelayotgan yosh ayollarni ta’limdan keyingi bosqichlarda ham qo‘llab-quvvatlash zarur.

Xotin-qizlarning ilm-fandagi ishtiroki ham shu jihatdan muhim. Bugungi talaba qiz ertaga tadqiqotchi, professor, muhandis, shifokor yoki yangi ilmiy yo‘nalish tashabbuskori bo‘lishi mumkin. Uning izlanishlari nafaqat o‘z kasbiy faoliyati, balki boshqa olimlar va yosh tadqiqotchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bois, ayollarning ilmiy faoliyatga jalb etilishi, malakasini oshirishi va akademik rivojlanishi uchun sharoit yaratish mamlakatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Iroda PARDAYEVA,
SamDCHTI Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasi professori v.b.

TAYYOR JAVOBDAN KO‘RA MUSTAQIL IZLANISH MUHIM

Tadqiqotga asoslangan ta’lim va o‘quvchilarda tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvda o‘quvchi tayyor ma’lumotni yodlab oluvchi emas, balki muammoni anglaydigan, taxmin ilgari suradigan, dalillarni o‘rganadigan va o‘z xulosasini asoslay oladigan faol ishtirokchiga aylanadi. Xo‘sh, tadqiqotchilik madaniyati nima va uni maktab davridan shakllantirish nega muhim?

Tadqiqotchilik madaniyati — insonning muammoni aniqlash, savol qo‘yish, ishonchli ma’lumot izlash, manbalarni tahlil qilish, kuzatuv yoki tajriba o‘tkazish, natijalarni taqqoslash va dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish ko‘nikmalari hamda tamoyillari majmuidir. Uning muhim jihatlaridan biri ilmiy halollikdir. Ya’ni tadqiqotchi o‘z fikrini tasdiqlaydigan dalillarnigina tanlamasligi, natijalarni o‘zgartirib ko‘rsatmasligi, boshqalarning fikri va mehnatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi kerak.

Bu madaniyat faqat olimlar yoki ilmiy izlanish olib boruvchilarga xos emas. Masalan, o‘quvchi ijtimoiy tarmoqda biror xabarni ko‘rib, uni darhol haqiqat sifatida qabul qilmasa, manbasini tekshirsa, boshqa ma’lumotlar bilan solishtirsa va shundan keyingina xulosa chiqarsa, tadqiqotchilik madaniyatining muhim talablariga amal qilgan bo‘ladi. Demak, u nafaqat ta’limda, balki kundalik hayotda ham insonni shoshma-shosharliklardan, asossiz xulosalardan va yolg‘on ma’lumotlar ta’siridan himoya qilishga xizmat qiladi.

Bola tabiatan qiziquvchan bo‘ladi. U atrofidagi hodisalarning sababini bilishga intiladi: nega yomg‘ir yog‘adi, nima uchun ayrim o‘simliklar tezroq o‘sadi, nega ba’zi jismlar suvda cho‘kadi-yu, bosbqalari suv yuzida qoladi? Bu savollar oddiy tuyulishi mumkin, ammo ularda izlanishning dastlabki belgilari mujassam.

Ta’lim jarayonida ana shu qiziquvchanlikni qo‘llab-quvvatlash, bolani savol berishga undash va mustaqil javob izlashiga imkon yaratish muhim. Agar o‘quvchi faqat o‘qituvchi bergan savollarga javob berishga odatlansa, uning izlanish imkoniyatlari cheklanishi mumkin. Aksincha, o‘zi savol qo‘yishga, taxmin qilishga va fikrini dalillar bilan asoslashga o‘rgangan bola bilimni shunchaki o‘zlashtirmaydi, balki uning mazmunini anglashga intiladi.

Masalan, fizika darsida yog‘ va suvning o‘zaro aralashmasligi hamda yog‘ning suv yuzasida qolishi haqida tayyor izoh berish mumkin. Biroq o‘qituvchi avval o‘quvchilarga oddiy tajriba ko‘rsatib, “Nima uchun yog‘ suv yuzasida qoladi?” degan savolni o‘rtaga tashlasa, darsning mazmuni o‘zgaradi. O‘quvchilar o‘z taxminlarini aytadi, tajribani kuzatadi, natijalarni muhokama qiladi va ilmiy tushuntirishga keladi. Bunda ular nafaqat fizik hodisani o‘rganadi, balki savol qo‘yish, kuzatish va xulosa chiqarish ko‘nikmasini ham egallaydi.

Buning uchun maktabda murakkab laboratoriyalar yoki katta ilmiy loyihalar tashkil etish har doim ham shart emas. Muhimi, topshiriq o‘quvchini mustaqil fikrlashga undashi va natijani tahlil qilish imkonini berishi kerak. Masalan, bir hafta davomida ob-havoni kuzatish, maktabdagi suv sarfini o‘rganish, sinf o‘quvchilarining kitobxonlik odatlari haqida so‘rov o‘tkazish yoki mahalladagi tarixiy joylar to‘g‘risida ma’lumot to‘plash mumkin. O‘quvchilar yig‘ilgan ma’lumotlarni tartiblaydi, taqqoslaydi, jadval yoki diagrammalar tuzadi va o‘z xulosalarini taqdim etadi.

Bunday faoliyatning qiymati faqat tayyorlangan loyiha yoki taqdimot bilan belgilanmaydi. O‘quvchi ma’lumotni qayerdan olganini ko‘rsatishi, turli fikrlarni taqqoslashi, xulosasi nimaga asoslanganini tushuntira olishi ham muhim. Masalan, kitobxonlik bo‘yicha so‘rov o‘tkazgan o‘quvchi natijalarni umumlashtirish bilan cheklanmasdan, olingan ma’lumotlar qanday xulosaga kelish imkonini berishini ham anglab yetishi lozim. Shundagina topshiriq oddiy mashqdan mazmunli izlanishga aylanadi.

Bu jarayonda o‘qituvchining o‘rni alohida. U barcha savollarga tayyor javob beruvchi emas, balki o‘quvchini to‘g‘ri yo‘naltiruvchi, kerakli manbalarni topishga ko‘maklashuvchi va mustaqil fikrlashga sharoit yaratuvchi bo‘lishi kerak. O‘quvchi noto‘g‘ri taxmin qilganida ham uning fikrini darhol rad etish o‘rniga, nima sababdan bunday xulosaga kelganini so‘rash, dalillarni qayta ko‘rib chiqishga undash foydali. Zero, tadqiqotda kutilgan natijaga erishmaslik ham yangi savollarni yuzaga keltirishi mumkin.

Tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirishdan maqsad barcha o‘quvchilarni olim qilish emas. Asosiy vazifa - ularni mustaqil fikrlaydigan, dalil bilan taxminni farqlay oladigan, muammoga turli tomondan qaraydigan va o‘z qarorlari uchun mas’uliyatni his etadigan insonlar etib tarbiyalashdir. Bunday fazilatlar kelajakda qaysi kasb tanlanishidan qat’i nazar, insonning bilim olishiga, yangiliklarni o‘zlashtirishiga va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Uljon KAMOLOVA,
Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi



ENDI YANADA QULAY

Aholini idorama-idora sarsongarchiligini, korrupsiya holatlarini oldini olish maqsadida davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar izchil davom etmoqda. Natijada turli korxona-tashkilotlar eshigida turna qator navbatlar kamayib, ish samaradorligi oshmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 15-iyuldagi "Aholiga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarini takomillashtirish hamda fuqarolar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori asosida bu boradagi ishlar yanada takomillashdi. Qarorga ko‘ra, joriy yil 1-oktabrdan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (My.gov.uz) quyidagi xizmatlar joriy etildi:

- jismoniy va yuridik shaxslarga o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlari va avtomototransportlarni garovga yoki ipotekaga qo‘yishga, shuningdek, ularni begonalashtirishga ta’qiq qo‘yish yoki uni bekor qilish;

- fuqarolarning o‘z nomiga rasmiylashtirilgan va foydalanilayotgan telefon raqamlari va bank kartalari to‘g‘risida ma’lumot olish.

Shu o‘rinda fuqarolarning o‘z nomiga rasmiylashtirilgan va foydalanilayotgan telefon raqamlari va bank kartalari to‘g‘risida ma’lumot olish bilan bog‘liq yangilikka batafsilroq to‘xtalib o‘tish joiz. Yangi tartib bo‘yicha bir qator imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, ushbu jarayonni boshqarishning quyidagi imkoniyatlarini yaratish ko‘zda tutilgan:

- telefon raqamini muayyan muddatga nofaol holatga o‘tkazish (faollashtirish) va o‘zi foydalanmayotgan telefon raqamlariga xizmat ko‘rsatishni to‘xtatish haqida arizalar kiritish;

- telefon raqami ulangan pullik xizmatlar haqida ma’lumot olish;

- bank kartalarini bloklash (yopish) haqida emitentga arizalar yuborish;

- fuqaroning nomiga yangi notarial harakat rasmiylashtirilganda avtomatik tarzda uni Yagona portal orqali xabardor qilish va ular hisobini yuritish.

Qaror bilan kiritilgan o‘zgartishlar aholiga qulaylik yaratish bilan birga inson hayotida uchrashi mumkin bo‘lgan turli noqonuniy harakatlardan o‘z vaqtida xabardor qilish imkoniyatini ham bermoqda. Islohotlar inson manfaatlarini ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan.

Sh. BAXRAMOV,
Samarqand shahar adliya bo‘limi Yuridik xizmat ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti

KORRUPSIYAGA QARSHI
MUROSASIZ KURASHISH – DAVR TALABI

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu illat nafaqat iqtisodiy barqarorlikka, balki fuqarolarning davlat organlari va moliya muassasalariga bo‘lgan ishonchiga ham jiddiy zarar yetkazadi.

Shu bois, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish va uning oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

"O‘zsanoatqurilishbank" ATB tizimida ushbu islohotlar doirasida qat’iy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Prezidentimizning 2025-yil 21-apreldagi "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq, bankda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha alohida ichki nazorat bo‘linmasi tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish" to‘g‘risida, 2026-yil 22-iyundagi qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida" Qonun talablari yuzasidan bankda korrupsiya holatlarini aniqlash va ularning oldini olish, mehnat jamoasida korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2026-yil davomida bank xodimlarining huquqiy bilimini oshirish maqsadida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi qonun mazmun-mohiyatiga bag‘ishlangan "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari", "Manfaatlar to‘qnashuvi", "Xodimlar tomonidan xizmat safarlari va xalqaro tadbirlarda olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘alar va uni tasarruf etish tartibi" mavzulari bo‘yicha o‘quv-seminarlar tashkil etildi.

Shu bilan birga, bankda jarayonlarni raqamlashtirish korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois tizimda "SQB BUSINESS" va "SQB Mobile" dasturlari orqali mijozlar 24/7 rejimida xizmatlardan bankga tashrif buyurmasdan foydalanish imkoniyatiga ega. Bu inson omili ta’sirini kamaytirib, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlamoqda.

Korrupsiyaning oldini olish faqat nazorat choralari orqali emas, balki xodimlar va mijozlarning huquqiy ongini oshirish orqali ham amalga oshirilmoqda. Uchrashuvlar va seminarlar davomida halollik va qonunga sadoqat tamoyillari targ‘ib etilmoqda.

Shuningdek, korrupsiya yoki manfaatlar to‘qnashuvi holatlari haqida xabar berish uchun "ishonch telefoni", maxsus veb-forma va "Telegram" chat-bot orqali 24/7 rejimida murojaat qilish imkoniyati yaratilgan.

Muxtasar qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi kurashish – bu tizimda halollik va adolatni qaror toptirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Bank jamoasi faoliyatida ochiqlik va ishonch muhitini mustahkalash yo‘lida izchil harakat qilmoqda.

Farrux G‘AFFOROV,
"O‘zsanoatqurilishbank" ATB Samarqand viloyati Korrupsiyaga qarshi kurashish guruhi xodimi

5 MINGDAN ORTIQ QOIDABUZARLIK

ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarishga bog‘liq

Samarqand viloyati hududiy qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi nazorati inspeksiyasi tomonidan ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarish xizmatlaridan foydalanishni nazorat qilish yo‘nalishida muntazam o‘rganishlar olib borilmoqda.

O‘rganishlar davomida joriy yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, ichimlik va oqova suv tarmoqlariga 5 141 ta noqonuniy ulanish hamda boshqa qoidabuzarlik holatlari qayd etilgan. Shundan 4 053 tasi ichimlik suvi tarmoqlariga, 542 tasi oqova suv tarmoqlariga noqonuniy ulanishlar, 546 tasi esa hisoblagich plombalarining uzilganligi bilan bog‘liq holatlarni tashkil etgan.

Aniqlangan holatlar natijasida suv ta’minoti tashkilotlari hisobidan 27,4 mird so‘m qo‘shimcha to‘lov hisoblangan.

Shuningdek, ichimlik va oqova suv xizmatlaridan foydalanish holati yuzasidan 4 786 ta budjet tashkilotida o‘tkazilgan o‘rganishlarda 741 ta kamchilik aniqlangan. Mazkur holatlar bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko‘rilgan.

GRIPP:
XALQ TABOBATINI YOKI SHIFOKOR...



- Aytaylik, ertalab uyg‘onganingizda o‘zingizni holsiz his qildingiz. Birinchi navbatda nima qilasiz?

Bu savolni berishimga sabab shu bo‘ldiki, auditoriyaga kirganimda talabalarimdan birining aksirganini eshitdim. Oradan ko‘p o‘tmay, yana bir talaba yo‘taldi...

— Issiq choy ichaman, ustoz, — dedi talabalardan biri.

— Antibiotik ichsam, tezroq tuzalib ketaman, — dedi boshqasi.

Ularning javoblari menga ko‘pchilik orasida uchraydigan holatni eslatdi. Ya’ni kasallik alomatlari paydo bo‘lishi bilan uning sabablarini aniqlashga emas, tezroq dori topishga shoshilamiz.

— Unda ayting-chi, gripp bilan oddiy shamollashning farqi nimada? Har qanday isitma antibiotik ichish kerakligini anglatadimi? — deb so‘radim ulardan...

...

Gripp, avvalo, virusli infeksiya. U ko‘pincha to‘satdan boshlanadi. Tana harorati ko‘tarilishi, bosh va mushaklarning og‘rishi, kuchli holsizlik, yo‘tal kuzatilishi mumkin. Oddiy shamollashda esa burun oqishi, bitishi va tomoq qirilishi kabi belgilar ko‘proq uchraydi. Biroq alomatlarga qarabgina kasallikni har doim ham aniq ajratib bo‘lmaydi.

Eng muhimi, grippni oddiy shamollash bilan tenglashtirmaslik kerak. Ayrim hollarda u pnevmoniya kabi jiddiy asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, yosh bolalar, keksalar, homilador ayollar va surunkali kasalligi bor insonlar uchun xavf yuqoriroq.

XO‘SH, ANTIBIOTIK VIRUSNI YO‘Q QILADIMI?

Antibiotiklar bakteriyalarga qarshi qo‘llanadi, viruslarga emas. Shuning uchun gripp yoki boshqa virusli infeksiyada antibiotikni o‘zboshimchalik bilan qabul qilish foyda bermaydi. Aksincha, u nojo‘ya ta’sirlarni keltirib chiqarishi va bakteriyalarning antibiotiklarga chidamliligini kuchaytirishi mumkin.

— Demak, isitmamiz ko‘tarilsa, darhol dori ichishimiz kerak emas ekan-da? — deb so‘radi talabalardan biri.

— To‘g‘ri. Haroratning o‘zi kasallik sababini ko‘rsatmaydi. Dori qabul qilishda insonning umumiy ahvoli, yoshi va boshqa kasalliklari ham hisobga olinadi. Ayniqsa, bolalarga dori berishda ehtiyot bo‘lish, shifokor tavsiyasiga amal qilish kerak.

Suhbat davomida e’tiborimni yana bir masalaga qaratdim. Kasallik alomatlari paydo bo‘lsa-da, ayrim odamlar ishga yoki o‘qishga boraveradi. Ular buni mehnatsevarlik yoki oddiy tumovga chidash, deb tushunishi mumkin. Aslida esa bunday yo‘l tutish nafaqat o‘z salomatligi, balki atrofdagilar uchun ham xavf tug‘diradi.

— Agar o‘zingizni betob his qilsangiz, darsga kelishingiz shartmi? — deb so‘radim.

Talabalar bosh chayqashdi.

— Imkon qadar uyda qolish, dam olish, yetarli suyuqlik ichish va boshqalar bilan yaqin aloqani cheklash kerak. Ayniqsa, yo‘tal va aksirish kuzatilganda, infeksiyani boshqalarga yuqtirmaslik choralarini ko‘rish muhim. Kasallik alomatlari kuchaysa yoki xavotirli belgilar paydo bo‘lsa, shifokorga murojaat qilish lozim.

UNDAN QANDAY HIMOYALANISH MUMKIN?

Birinchidan, ko‘chadan qaytgach, ovqatlanishdan oldin va jamoat joylarida bo‘lgandan keyin qo‘l gigiyenasiga rioya qilish muhim.

Ikkinchidan, uylar, sinfxonalar va ishxonalarni muntazam shamollatish kerak. Ayniqsa, odamlar ko‘p to‘planadigan yopig‘ xonalarda havo almashinuvi infeksiya tarqalish xavfini kamaytirishga yordam beradi. Gavjum joylarda va tibbiyot muassasalarida niqobdan foydalanish, kasallik alomatlari kuzatilganda esa boshqalardan ehtiyot bo‘lish ham foydali choralar sirasiga kiradi.

Uchinchidan, mavsumiy grippga qarshi emlanish masalasini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Vaksina gripp bilan kasallanish va uning og‘ir kechishi xavfini kamaytirishga yordam beradi. Ayniqsa, asoratlar xavfi yuqori bo‘lgan insonlarga emlanish bo‘yicha shifokor bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

— Ustoz, limonli choy, asal, sarimsoq yoki isiriq grippdan himoya qiladimi? — deb so‘radi, talabalardan biri.

Bu savolga javob berishda xalqimizning kundalik odatlarini ham hisobga olish zarur. Iliq choy ichish, yetarli suyuqlik iste’mol qilish, to‘yimli ovqatlanish va dam olish kasallik davrida o‘zini yaxshi his qilishga yordam berishi mumkin. Asal ayrim hollarda yo‘talni yengillashtiradi, biroq uni bir yoshgacha bo‘lgan bolalarga berish mumkin emas. Sarimsoq, limon va boshqa mahsulotlar esa grippdan ishonchli himoya vositasi hisoblanmaydi.

Isiriq tutatish ham havoni viruslardan ishonchli tozalashi isbotlangan usul emas. Aksincha, tutun nafas yo‘llarini bezovta qilishi mumkin. Xonani muntazam shamollatish esa havo almashinuvini yaxshilashning oddiy va muhim usulidir.

Hurmatli gazetxonlar, siz ham o‘zingizga savol bering: shamollaganimda darhol dorixonaga boramanmi yoki avval holatimni to‘g‘ri baholab, zarur bo‘lsa, shifokorga murojaat qilamanmi?

Nodira RABBIMOVA,
SamDTU dotsenti, PhD

QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



Adliya vazirligi hujjatlarning qog‘oz shakli o‘rniga elektron shaklini taqdim etishga oid idoraviy hujjatlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazdi.

Mazkur hujjatlar bilan 33 ta idoraviy hujjatga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Ular fuqarolar hujjatlarning elektron shaklini taqdim etishi va tegishli tashkilotlar ularni qabul qilishi imkoniyatini yaratadi.

HUJJATLARNING QOG‘OZ NUSXASI SHART EMAS

Unga ko‘ra, biometrik pasport, ID-karta, tug‘ilganlik va nikoh guvohnomalari, pensiya guvohnomasi, nogironlik to‘g‘risidagi ma’lumotnoma, urush qatnashchisi guvohnomasi yoki talabalik guvohnomasi kabi hujjatlarning qog‘oz shakli o‘rniga my.gov.uz va "Ijtimoiy karta" mobil ilovasidagi elektron shakldan foydalanish mumkin.

Raqamli hujjatlar quyidagi holatlarda qabul qilinadi:

- banklarda – bank xizmatlaridan foydalanishda va ayrim moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda shaxsni tasdiqlashda;

- notarial idoralarda – tegishli notarial harakatlarni amalga oshirishda;

- aeroportlarda – O‘zbekiston ichidagi aviareyslarga ro‘yxatdan o‘tishda;

- urush qatnashchilariga kompensatsiya berishda;

- telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatishda – abonent bilan xizmat shartnomasini tuzishda;

- qon va uning tarkibiy qismlarini topshirishda – donorning shaxsini tasdiqlashda;

- lombardlar bilan shartnoma tuzishda;

- tibbiy-ijtimoiy muassasalarda pullik xizmatlar ko‘rsatishda;

- fuqarolarni harbiy ro‘yxatga olishda va boshqa bir qator xizmatlarni ko‘rsatishda.

Ma’lumot uchun, Hukumat qaroriga (897-son, 27.12.2024 y.) muvofiq shaxsni tasdiqlovchi va boshqa bir qator hujjatlarning unifikatsiyalangan raqamli servislari joriy etilgan.

@huquqiyaxborot

SHARQONA AMALIY SAN'ATNING MOHIR USTASI

Samarqandlik miniatyurachi rassom, usta hunarmand Mansur Nurillayev 32 yildan beri sharqona tasvirlarni yog'och, sopol buyumlar va teriga mohirlik bilan aks ettirib kelmoqda.

Samarqand shahridagi Ruhobod maqbarasi hududida joylashgan mo'jaz ustaxonada ijod qilayotgan Mansur Nurillayev ushbu san'atni ustozi Ahmad Umarovdan o'rgangan. Ustozidan miniatyura san'atini puxta o'rgangan ustaning o'zi ham bugun o'ndan ortiq shogirdni tayyorlab, mustaqil ijodga kuzatishga ulgurdi. Mansur Nurillayev o'z kasbini uzviyligini ta'minlash maqsadida amaliy san'at maktabi tashkil etishni maqsad qilgan.



— Milliy hunarmandchiligimizga bo'lgan qiziqish yuqori, — deydi M. Nurillayev. – Shu bois, uni yosh avlodga o'rgatib, davomiyligini ta'minlashimiz lozim. Biz ham yoshligimizda ustozimiz Ahmad Umarovdan kasb sirlarini o'rganib, miniatyura chizishni boshlaganmiz. Yelkamizda kasbning avlodlar osha davomiyligini ta'minlash mas'uliyati bor. Shu bois, Samarqand tumanining Konigil turizm qishlog'i hududida miniatyura maktabini tashkil qilish maqsadim bor. Albatta, bu maktab faqatgina miniatyura rassomchiligi bilan cheklanmaydi. Unda amaliy san'at ishlarini yo'lga qo'yishni rejalashtirmoqdaman. Chunki, bitta yo'nalish bilan cheklanish bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitiga to'g'ri kelmaydi. Har qanday sohaning rivoji iqtisodiy imkoniyatlarga bog'liq.

Mansur Nurillayev betakror miniatyura san'ati namunalari bilan birga o'ziga xos yangiliklari bilan ham e'tirofga sazovor bo'lib kelayotgan hunarmandlardan biri. U turli kattalikdagi suvqovoq (lagenariya)-lardan tungi yoritkichlar, archa o'yinchoqlari tayyorlab, ularni turli miniatyuralar bilan bezatmoqda. Hunarmandning bu amaliy san'ati namunasi mahalliy va xorijlik mehmonlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Bundan ruhlangan usta joriy yil suvqovoqdan xotin-qizlar uchun taqinchoq va boshqa bezaklarni saqlashga mo'ljallangan buyum tayyorlashni boshladi.

— Har bir soha bozorga moslashishi kerak, — deydi Mansur Nurillayev. – O'z ishingizni xaridorga ko'rsata bilsangiz u xarid qiladi. An'anaviy ustillarga qiziqish kamaydimi yangilik qilish kerak. Shunda soha rivojlanadi. Albatta, an'anaviy miniatyuralarning o'z mudiisi bor. U hech qachon yo'qolmaydi. Ammo, bozor sharoitidan kelib chiqib yangilikka ham qo'l urib turish lozim. Shu maqsadda bugun suvqovoqdan maxsus buyumlar yasashni kengaytiryapman. Bundan tashqari, miniatyura tasvirlari bilan bezatilgan turli hajmdagi qutichalarni yana qayta tayyorlashni boshladim. Bu yo'nalishga bir muddat qiziqish kamaygandi. Bugun yana talab ortmoqda. Hunarmandlarning ishini rivojlantirish uchun bugungi zamonaviy yondashuvlarni ham amaliyotga tatbiq etish lozim. Ya'ni, onlayn savdolarni yo'lga qo'yish vaqti keldi, nazarimda. Chunki, bugun ko'pchilik onlayn savdoni afzal ko'rmoqda.

Mansur Nurillayev ko'plab xorijiy davlatlarda o'tkaziladigan ko'rgazmalarda ham faol ishtirok etib keladi. Uning ta'kidlashicha, o'zbek milliy hunarmandchilik mahsulotlarining xorijda ham ixlosmandlari talaygina. Jumladan, yaqinda Turkiyada o'tkazilgan "Craft Istanbul 2026" xalqaro hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasida yurtimiz hunarmandlarining ijodiy ishlariga katta qiziqish bildirilgan. Unda qatnashgan Mansur Nurillayev bir qator yangi g'oya va tashabbuslarni rejalashtirib, hunarmandchilikni rivojlantirishni maqsad qilgan.

Alisher ISROILOV

QADIMIY TOPILMALARDAN ZAMONAVIY IPAK YO'LLARIGACHA

Davlatimiz rahbarining shu yil 21-aprel kuni qabul qilingan qaroriga ko'ra, Samarqand shahrida "Ipak yo'li" muzeyi tashkil etiladi. Muzeyni shaharning tarixiy qismi Ko'ksaroy maydoni hududida barpo etish rejalashtirilgan va ayni paytda loyiha ishlari amalga oshirilmoqda.

O'z navbatida soha mas'ullari va mutaxassislar tomonidan muzey ekspozitsiyasini yaratish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda.

– Qaror bilan "Ipak yo'li" davlat muzeyini tashkil etish bo'yicha 2026—2028-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan, – deydi "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi bosh direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Safura Ro'zimurodova. – Dasturda 2026—2028-yillarda qurilish, malakali xorijiy va mahalliy mutaxassislarni jalb etgan holda, muzeyning ilmiy konsepsiyasi va tematik-ekspozitsion rejasini ishlab chiqish belgilangan. Biz bu borada izlanishlar olib borib, yangi muzey ekspozitsiyaning ilmiy konsepsiyasi dastlabki loyihasini tayyorlab, tegishli idoralarga taqdim etdik. Konsepsiya loyihasida "Ipak yo'li" davlat muzeyi ekspozitsiyasining maqsadi, vazifalari, bo'limlari hamda g'oyaviy asoslari belgilandi. Ekspozitsiyada Buyuk Ipak yo'li tarixini o'rganish borasida amalga oshirilgan arxeologik va ilmiy tadqiqotlar, Ipak yo'lida joylashgan qadimiy shaharlar haqidagi ashyolar va ma'lumotlarni namoyish etish rejalashtirilmoqda. Bizning asosiy maqsadimiz yaxlit ekspozitsiya majmuasini yaratishdan iborat bo'lib, turli tipdagi ashyolarni yagona maqsadga birlashtiruvchi g'oyaviy-tematik va badiiy-me'moriy yechimlar hosil qilishdan iborat. Ekspozitsiyada qisman tarixiy xronologik tartib, voqea va harakatlarning hujjat hamda dalillarga asoslab yoritib berish ko'zda tutilgan.

Loyihaga ko'ra, ekspozitsiya 14 bo'limdan iborat bo'ladi va "Topilmalar zamini"dan boshlanib, "Zamonaviy ipak yo'llari"gacha davom etadi. Bu bo'limlarda yurtimiz hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida topilgan qadimiy ashyolar, nodir manbalar namoyish etiladi. Yo'llarning paydo bo'lishiga oid ma'lumotlar, Buyuk ipak yo'lining insoniyat hayotidagi ahamiyati, turli davlatlar, saltanatlarning yuzaga kelishi va ularning taqdiri, hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati, Samarqandning sivilizatsiyalar chorrahasi sifatidagi o'rni yoritiladi. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalaniladi, animatsion va ilmiy hujjatli filmlar yaratiladi.

Muzey fondini shakllantirish maqsadida "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi hamda respublikamizning boshqa muzeylaridagi noyob, eng sara muzey ashyolari o'rganilib, yangi muzey ekspozitsiyasi uchun saralanmoqda. Dastlabki rejalarga ko'ra, yangi muzey ekspozitsiyasi arxeologiya, tasviriy san'at, amaliy san'at materiallarini qamrab olgan 6 mingdan ziyod noyob eksponatlarni birlashtiradi. Ilmiy konsepsiya loyihasi tasdiqlanganidan so'ng bu boradagi ishlar aniq reja asosida amalga oshiriladi va eksponatlar soni yana ham oshishi mumkin.

Aytish mumkinki, Samarqandda "Ipak yo'li" muzeyining tashkil etilishi, bu qadimiy kentning jahon sivilizatsiyasi va Ipak yo'li tarixidagi beqiyos o'rnini e'tirof etgan holda uning boy tarixiy-madaniy merosini asrab-avaylash va dunyoga targ'ib etishga, shuningdek, shaharning sayyohlik jozibadorligini oshirish va turistik salohiyatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zA

EHTIYOT BO'LING FIRIBGARLARNING YANGI USULI

Ba'zan oddiy bir telefon qo'ng'irog'i ortida qanday maqsad yashiringanini darhol anglash qiyin. Ayniqsa, qo'ng'iroq qilgan kishi o'zini rasmiy tashkilot vakili sifatida tanishtirib, ishonchli ohangda gap boshlasa, odam uning so'zlariga ishonib qolishi mumkin...

Yaqinda ishxonadagi telefon jiringlab qoldi. Go'shakni ko'tarishim bilan rus tilida gapirayotgan bir kishi o'zini aloqa xizmati tashkilotidan ekanini aytdi.



— Bilasizmi, ertadan boshlab sizning telefon raqamingiz o'zgaradi. Endi sizning telefon raqamingiz 233 bilan emas, 234 raqami bilan boshlanadi, — dedi u.

Men undan raqamning faqat birinchi qismi o'zgarishini, qolgan raqamlar esa avvalgidek qolishini so'radim.

— Ha, shunday qoladi, lekin do'stlaringiz, hamkasblaringiz telefon qilishsa, biz ularni sizga ulab beramiz, — deya ta'kidladi u.

Shu paytgacha suhbat oddiy xizmat jarayoniga o'xshagan suhbatning davomi menda shubha uyg'otdi.

— Bilasizmi, oldin pasportingiz yashil rangda edi, endi esa plastik ko'rinishida bo'ldi. Pasport raqamingizni eslay olasizmi? — deb so'radi u.

Men hayron bo'ldim. Axir, gap ishxonadagi xizmat telefoni haqida ketayotgan bo'lsa, bunga shaxsiy pasportimning nima aloqasi bor? Ushbu savolni berishim bilan "aloqa xizmati xodimi" qovun tushirganini bilib go'shakni qo'yib qo'ydi.

Bugun huquq-tartibot organlari tomonidan firibgarlardan ehtiyot bo'lish borasida muntazam ogohlantirishlar berib borilmoqda. Ularning qanday usullardan foydalanayotgani haqida ommani ogohlantirgan sari firibgarlar yangi yo'llarni izlamoqda. Yuqoridagi holat ham aynan firibgarlarning yangi tuzog'i. Firibgarlarning bunday tuzog'iga tushmaslikning yagona yo'li shaxsiy ma'lumotlarni hech kimga bermang!

Zero, ba'zan firibgarlikka yo'l ochadigan narsa murakkab texnologiyalar emas, balki insonning ishonuvchanligi va bir lahzalik e'tiborsizligidir.

Sarvara ABDURAHMONOVA

Kattalarning aytgan har bir gapi yoshlar uchun o'ziga xos mezon. Ammo, u noto'g'ri paytda va noto'g'ri mazmunda aytilsa, oqibati kutilganidan ham og'ir bo'lishi mumkin. Yaqinda ko'p qavatli uylarning birida sodir bo'lgan voqea bunga misol bo'la oladi.

BIR OG'IZ NOTO'G'RI DALDA

BESH OILAGA QIMMATGA TUSHDI

Tun yarimlagan, ko'pchilik xonadonlarda chiroqlar o'chgan edi. Uzoq yo'ldan kelgan mehmon dam olish uchun ko'z yumgan payt, hovlidan eshitilayotgan kulgi, baland ovozdagi suhbat va voleybol to'pining tinimsiz zarbalari uyquni qochirdi.

Mehmon sabr qildi. Shovqin tinmagach, pastga tushib, hovlida yig'ilgan yoshlarga iltimos qildi.

— Ukalar, singillar, vaqt kech bo'ldi. Ertaga ishga boradigan, dam olayotgan odamlar bor. Iltimos, shovqinni biroz pasaytiring.

Masala shu yerning o'zida tugashi ham mumkin edi. Ammo voqea boshqacha tus oldi.

Chetroqda turgan, spirtli ichimlik ta'siridagi katta yoshli kishi suhbatga aralashdi.

— Senga nima? Kim bo'libsan? — dedi u dag'al ohangda.

Mehmonning ortidan mezbon ham pastga tushib, vaziyatni yumshatishga urinib ko'rdi.

— Mehmonim uzoq yo'ldan charchab keldi. Kichik iltimos qilyapmiz, vaqt ham ancha kech bo'lgan bo'lsa...

Lekin katta yoshli "qahramon"ning qo'pol munosabati yoshlarni ruhlantirdi.

—Xohlaganimizni qilamiz!

Vaziyat keskinlashgach, mezbon mahalla raisi va profilaktika inspektorini chaqirishga majbur bo'ldi. Holat qonuniy tartibda rasmiylashtirildi. Natijada tungi osoyishtalikni buzgan besh nafar voyaga yetmagan yigit-qiz belgilangan tartibda jarima to'laydigan bo'ldi...

Bu voqeaning achinarli tomoni jarimami?

Menimcha, mojaroning kattalashishiga yoshlarning emas, katta yoshli insonning noo'rin munosabati sabab bo'ldi. Agar u yoshlarni tinchlanishga, tarqalishga chaqirganida, ehtimol hech kim profilaktika inspektorini chaqirmas, hech kim bayonnoma tuzmas, besh oilaning eshigi oldiga jarima xati ham bormasdi...

Farzand tarbiyasida uyda aytiladigan nasihatlar bilan bir qatorda, kattalarning ko'chadagi munosabati, qo'shniga bo'lgan hurmati, qonunga munosabati ham muhim o'rin tutadi

Yoshlarning sport bilan shug'ullanishi, do'stlari bilan vaqt o'tkazishi tabiiy. Biroq erkinlik boshqalarning huquqini buzish hisobiga bo'lmasligi kerak. Bir insonning hordig'i ikkinchisining uyqusini buzayotgan bo'lsa, bu endi dam olish emas, qonunbuzarlik hisoblanadi.

Jalilbek TOIROV

SAMARQAND
MUASSIS: Samarqand shahar hokimligi
Muharrir v.b: Olim SONNIBOYEV
Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 06.09.2012-yilda 09-05 raqami bilan qayta ro'yxatga olingan. Indeks: 5505
Gazeta tahririyat matbaa bo'limida terildi va sahifalandi. Tahririyat matbaa bo'limi O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2.06.2017-yilda 18-3959 raqami bilan ro'yxatga olingan.
ISSN 2010-6734
Gazeta «Noshir lyuks» MChJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.
MANZIL: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Turonov ko'chasi, 80-uy.
TELEFONLAR: +998 66 233-58-40, +998 66 233-67-79.
Gazeta haftaning shanba kuni chiqadi.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar muallifga qaytarilmaydi.
Sotuvda erkin narxda
Navbatchi: Alisher ISROILOV
Sahifalovchi: Oyatullo NAZIROV
Buyurtma: 412 Adadi: 1805 nusxa.
Boshdog topshirish vaqti: 18:00.
Boshdog topshirdi: 18:00.